



PEDAGOGIKANING DOLZARB MUAMMO VA YECHIMLARI

**Respublika ilmiy-amaliy
anjumani materiallari
(2021 yil 17 may)**

2021-yil

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

**Abdulla Qodiriy nomidagi
JIZZAX DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI**

PEDAGOGIKANING DOLZARB MUAMMO VA YECHIMLARI

**Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari
(2021 yil 17 may)**

Jizzax – 2021

UDK: 37.06(05)

BBK: 74.00

E-59

“Pedagogikaning dolzarb muammo va yechimlari” Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari to`plami

(Jizzax, 2021 yil 17-may, O`zbekiston). - Jizzax. 2021. – 516 b.

MAS`UL MUHARRIR:

Sh.S.Sharipov – pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIR HAY`ATI:

Kushvaktov N.X. – pedagogika fanlari nomzodi, dotsent

Qodirov G. – biologiya fanlari nomzodi, dotsent

To`raqulova I.X.- pedagogika fanlari nomzodi

Atamurodova R.Q. – pedagogika fanlari nomzodi, dotsent

Jumanazarova D.U.- pedagogika fanlari nomzodi, dotsent

Hamzayev H.X.- pedagogika fanlari bo`yicha falsafa doktori, (PhD)

Primov Sh.Q.- pedagogika fanlari bo`yicha falsafa doktori, (PhD)

TAQRIZCHILAR:

X.A.To`raqulov – Pedagogik ta`lim xalqaro fanlar akademiyasi akademigi, ANTIQUE WORLD xalqaro ilmiy akademiyasi akademigi, “Turon” fanlar akademiyasi akademigi, A.G.Nebolsin nomidagi xalqaro mukofot lauriyati, texnika fanlari doktori, professor, Xalq maorifi a`lochisi.

A.Nurmanov – pedagogika fanlari doktori, professor.

To`plam muharrirlari: M.R. Isaqulov, G.M. Almuratova, O.A. G`aniyev, T. Ergashev

Ushbu to`plam Jizzax davlat pedagogika institutida O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 2-martdagi № 78-F sonli Farmoyishiga asosan joriy yilning 17 ma`i kuni Jizzax davlat pedagogika instituti Umumiy pedagogika kafedrasida “Pedagogikaning dolzarb muammo va yechimlari” mavzusida Respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallaridan iborat.

To`plamdan joy olgan tezislarda keltirilgan ma`lumotlarning to`g`riligiga mualliflar javobgardirlar

	тарбиянинг муҳим воситаси сифатида.....	461
35	<i>Махамматов А., Абдурахимов А. Холбеков М.</i> Бўлажак мусиқа ўқитувчилар ижодкорлик қобилиятини шакллантириш масалалари.....	464
36	<i>Бурхонов А.</i> Некоторые вопросы организации работы на уроках русского языка в молококомплектной школе.....	467
37	<i>Турсунова О.Ш. Султонов.М.</i> Изучение искусство вышивки и художественного ткачества.....	469
38	<i>Саримсоқова М.М.</i> Оилада болаларни ахлоқий тарбиялашнинг ўзига хос хусусиятлари.....	473
39	<i>Акрамова Х.С., Темирова Г.И.</i> Нутқи тўлиқ ривожланмаган болаларда монологик нутқини ривожлантириш.....	476
40	<i>Ҳақбердиев Ж., Чориева З.</i> Коклер имплантациясидан кейин болаларни реабилитацион кўллаб қувватлаш.....	478
41	<i>Жаъфархон Исахонов, Фарзона Исахонова</i> Ёшлар ижтимоий фаоллигини ошириш миллий-маънавий юксалиш омили.....	481
42	<i>G.Esirgapova.</i> Tarbiyachilik, mas'uliyatdir.....	484
43	<i>Эшбекова Г.</i> Мактабгача ёшдаги болаларда мулоқот фаолиятини шакллантиришда ўйинларнинг тарбиявий аҳамияти.....	485
44	<i>Жўраева Б.А., Бўриева Р.А.</i> Ўқитувчиларни тўғаракка жағб қилишда халқ хунармандлигидан фойдаланишнинг ўзига хос хусусиятларини ўрганиш.....	488
45	<i>Мунарова Р.У., Абдулахатова Ш.Р. Абдулқосимов.</i> Роль художественной литературы как свидетельство нравственной культуры личности.....	491
46	<i>Камолова Ш., Сувонов Қ.</i> Талабалар креатив фикрлашини ривожлантиришнинг психологик баъзи жиҳатлари.....	494
47	<i>Ахмедова Ш. М.</i> Ўқувчиларда дизайнерлик тафаккур элементларини шакллантириш.....	496
48	<i>Tangirova D.E.</i> Logopedik ritmik mashg'ulotlar yordamida duduqlanishni bartaraf etishning усуллари.....	499
49	<i>Yusufaliyeva G.A.</i> Integrativ yondashuvlar asosida boshlang'ich sinflarda o'tiladigan fanlarni tashkil etish imkoniyatlari.....	502

BO'LAJAK MUSIQA O'QITUVCHILAR IJROCHILIK QOBILIYATINI SHAKLLANTIRISH MASALALARI

**Maxammatov Abdumannon, Abduraximov A'zam,
Xolbekov Mingjigit – JDPI o'qituvchilari**

Bugungi kunda umumiy o'rta ta'lim maktab o'quvchilari musiqa fani asoslarini amalda qo'llash malakalarini puxta egallab ijrochilik faoliyatiga kirishish uchun barcha imkoniyatga ega. Bunda asosiy rolni musiqa o'qituvchisi o'ynaydi.

Ta'limning o'ziga xos jihatlaridan biri shundaki, shaxs egallagan maxsus bilimlar, yuqori kasbiy mahorat, umumiy madaniyat, g'oyaviy - ahloqiy sifatlar iqtisodiy va ijtimoiy vazifalarni hal qilishning omili sifatida amalga oshirilmoqda. Axborot ko'lamining keskin o'sishi, insonlarda ma'naviy ehtiyojlarning oshishi yosh avlodni o'qitish va tarbiyalash vazifalarini yangi darajaga ko'tardi. Chunki, nafaqat ta'lim mazmuniga, balki tarbiyaviy ishlarni tashkil qilish madaniyati, uning yo'llari, shakllariga ham talab oshmoqda.

O'sib kelayotgan yosh avlodni musiqa va ashula yordamida tarbiyalash jarayoniga tizimli yondashish o'zining maqsadliligi va izchilligi bilan tavsiflanadi. Hozirgi zamon sharoitida bo'lajak musiqa va ashula o'qituvchilarini shaxs sifatida shakllanishlari, ijtimoiy munosabatlarini rivojlanishi bilan bir jarayonda sodir bo'ladi. Shaxsni tarbiyalash jarayoni rejalashtirilgan jarayon tusiga ega bo'ladi. Bu esa o'z navbatida jamiyatning barcha institutlarini tarbiya funksiyalarining koordinatsiyasi asosida optimal boshqarishga imkoniyat beradi. Ular orasidagi maktab, oila, mehnat jamoalarini o'zaro harakatlari, o'ziga xos ijtimoiy ahamiyatga ega bo'ladi. Yuqorida aytib o'tilganidek, musiqa o'qituvchilarini tayyorlashda pedagogik nuqtai nazardan, undagi nazariy va amaliy ta'limning o'qitilishi keng tarmoqli korxonalariga tayanganligidir. Ta'lim mazmunida pedagogik va musiqiy tayyorgarlik elementlarini kesishuvi yotadi. Zamonaviy ilmiy-texnika rivojlanishining asosiy xususiyati, fan va texnika yutuqlarini inson faoliyatini barcha sohalariga joriy etishdan iboratdir. "Texnika"-so'zining ma'nosi kengaydi-endi u oddiy qurol vositalari bilan chegaralanib qolmay, o'z ichiga ma'lum bir ilmiy-texnika bilimlarni ham qamrab oladi. Shu sababli, bo'lajak o'qituvchilarni gumanitar va texnik tayyorgarligi quyidagilarni ta'minlashi zarur:

- birinchidan, etarlicha yuqori darajadagi bilim, bu bilimlar ijro amaliyotida ilmiy tushuncha va qonunlarni qo'llashga imkon berishi kerak;

- ikkinchidan-avtomatlashtirilgan ishlab chiqarish sharoitida samarali ishlay olishi uchun shaxsda xususiyatlar va dunyoqarashni shakllanishi;

- umumta'lim maktablarida va estetik vazifalarni echimini topishda musiqiy ta'lim katta imkoniyatlarga egadir. O'quvchilarning ishlab chiqarish mehnati va musiqiy ta'lim jarayonida estetik printsiplarini ruyobga chiqarishda, o'qituvchidan o'quvchilar nazariy bilimlarini mustaqil qo'llay oladigan vaziyatlarini yuzaga keltirish talab etiladi. Busiz, o'quvchining uyg'unlik tayyorgarligiga oid asosiy vazifalar o'z echimini topmaydi. Bunday tayyorgarlik o'quvchilarda kompyuterlarni o'rganishda texnik fikrlashga, tadqiqotchi nuqtai nazaridan yondashishga asoslanadi. Pedagogik institutining oliygohlarning ish tajribasi shuni ko'rsatadiki, ashula va musiqa mashg'ulotlari talabalarni eshitish qobiliyatini yaxshilaydi, musiqiy bilimni shakllantiradi, kompyuter o'yinlari tmoyillarini tushunish odatlarini tarbiyalaydi, musiqani o'rganish jarayonini tahlil qilishni o'rgatadi, musiqiy jarayonni takomillashtirish yo'llarini izlash, ya'ni chin dildan, topqirlik bilan ishlashga undaydi.

Bo'lajak musiqa o'qituvchilarini tayyorlash, ular ega bo'lgan bilim va ko'nikmalar birgalikda maqsadli sistemani tashkil etgan, birgalikda rivojlanayotgan ilmiy g'oyalar, qonunlar, tushunchalar, ijodiy fikrlash va pedagogik faoliyatda mustaqillik bo'lgan taqdirdagina muvaffaqiyatli bo'lishi mumkin. Muntazamlik printsiptiga rioya qilish birinchi navbatda o'quv rejalarini, dastur va darsliklarini tuzish uchun zarur. Musiqa o'qituvchilarini tayyorlash zaminida bilimlarni muntazamligini tekshirish umumlashtirishni 3; umumta'lim, uyg'unlik va kasbiy-pedagogik darajasida tekshirilishi zarur. Bu bilim darajalari, musiqa jarayonida kompyuterlarni o'rganish, pedagogik (maktabda, kollejda) faoliyatda o'zaro munosabatda bo'ladilar. Bu esa o'z navbatida musiqa o'qituvchilarini tayyorlashni maxsus xususiyatlari va bir-biri bilan bog'liq 3 o'quv fanini mavjudligi bilan yuzaga keladi. Musiqa o'qituvchilarini maxsus tayyorgarlik shakllarini ishlab chiqish nazariy darajadan amaliy darajaga o'tish, nazariy jihatdan ishlab chiqilgan o'qituvchilar tayyorlashni samaradorligini takomillashtirish yo'llari orqali amalga oshirilishi zarur. Pedagogika instituti talabalari zamon talabiga mos, o'quvchilarni professional ta'lim, musiqa va estetik tayyorgarligini amalga oshirish uchun etarlicha tayyorgarlik ko'radilar. Bu esa tarixiy, nazariy, uslubiy fanlarni va maktabdagi pedagogik amaliyot bilan birlik bo'lgan taqdirda amalga oshiriladi. O'qituvchilar tayyorgarligiga mos ravishda barcha bilim va ko'nikmalar, ta'lim mazmunining tarkibiy komponentlariga mos quyidagi guruhlarda aks etishi mumkin:

1. Musiqa eshitish;
2. Ijodiy faoliyat, ijrochilik;
3. Bilish faoliyati (musiqiy savodlilik);
4. Musiqiy san'atni bilib, faol tashviqot qilishda namoyon bo'ladigan jamoat foydali faoliyati.

Talabalarga beriladigan barcha bilim va ko'nikma guruhlarda o'zaro bog'liq bo'lib, doimo rivojlanib boradi. Bilim va ko'nikmalardan kelib chiqqan holda, maxsus o'quv materiallar asosi aniqlanadi.

Har biri kasb o'z xususiyatiga ega. Musiqa o'qituvchisining ham o'ziga xos "sirlari" bor. Musiqaga bo'lgan muxabbat, o'zini bolalarga bag'ishlash, musiqasiz uyg'unlikda rivojlangan odam bo'la olmaslikka ishonch o'zining ishiga sodiqlik- bu pedagog- musiqachi yashaydigan doimiy his tuyg'ulardir." Bu kasbning murakkabligi- deb yozadi mashhur pedagog O.A.Aproksina-ham "O'qituvchi",ham "Musiqachi" tushunchalariga kiruvchi elementlarni o'zaro bir- biriga jipsligini zaruriyiligini aniqlash bilan ifodalansa, ularning har biri ko'p qirrali tushuncha ekanligini unutmaslik zarur. Musiqa o'qituvchisi o'quv tarbiyaviy ishlarni olib boradi, dunyoqarashni fikrlashni, talab va didni shakllantiradi. U nafaqat o'z

fanini yaxshi biluvchi keng dunyoqarashli ma'lumotli odam bo'libgina qolmay, balki bu so'zning keng ma'nosida jamoa shaxsi bo'lib qolishi zarur.

Musiqqa o'qituvchisi ajoyib sozanda bo'lishi zarur. Uning faoliyatini muvaffaqiyatlilikini musiqqa asbobida a'lo darajada chala olishi, ovoz, nozik eshitish qobiliyati, nota savodxonligi, ifodali o'qish kabi xislatlarini aniqlab beradi. Bu masalada D. V. Kobalevskiy shunday deb yozgan edi. "musiqqa o'qituvchisi bilish zarur bo'lgan barcha bilimlar ichida uning musiqqa asbobida chala olishini alohida takidlash zarur. Darsda mexanik yozuv yordamisiz qiynalish mumkin, ayniqsa sinfda xor, orkestr yoki opera sahnasi yangrashi kerak bo'lsa bunday jarayonida musiqqa asbobi jonli ijro o'rniga ishlatilmay, o'qituvchi ijrosiga yordamchi sifatida qo'llanilishi kerak. Bu 3 nuqtaiy nazardan o'ta zarur:

Birinchidan -jonli ijro hamma vaqt sinfda xayajonli muhitni paydo bo'lishiga sabab bo'ladi;

Ikkinchidan- jonli ijro vaqtida o'qituvchi kerakli vaqtda xamisha tuxtashi mumkin, zarur deb xisoblangan parchalarni takrolashi mumkin, boshlanish vaqtiga qaytish imkoniyati bo'ladi va hokozo.

Uchinchidan - musiqqa asbobida chala oluvchi uning ustiga yaxshi kuylovchi musiqqa o'qituvchisi, o'z o'quvchilari uchun yaxshi namuna bo'lib, amaliyotda musiqani o'zi ijro eta olishi qanday zarur va qiziqarli ekanligini ko'rsatadi".

Musiqqa asbobida chala olish, ovozga dirijyorlik mahoratiga ega bo'lish bular musiqqa o'qituvchisi bilishi zarur bo'lgan bilimlarni to'liq ro'yxati emas.

Musiqqa madaniyatiga jalb etishdan oldin musiqiy- nazariy tayyorgarlik katta ahamiyatga ega. Har bir savodli musiqachi singari, musiqqa, adabiyot, tarix o'qituvchilari ham musiqqa tilining asoslari va qonuniyatlarini tushunishlari zarur. Musiqqa san'atini jamiyat rivojida tutgan o'rni, uni adabiyot va rassomlik san'ati bilan aloqasini bilish alohida ahamiyat kasb etadi. Har tamonlama musiqiy tayyorgarlikka ega bo'lgan bo'lajak pedagog o'z fanini tushuna bilishga yordam beradi.

Umumta'lim fanlar va pedagogik- psixologik mazmunidagi fanlar asosida yig'ilgan musiqiy tajriba, musiqiy tarbiya uslubiyotiga ega bo'lishiga imkon yaratadi. Lekin bu faqatgina maxoratga katta pedagogik mehnat evaziga yig'ilgan tajribaga, izlanish va o'z – o'zini doimo manfaatlaridan voz kechish evaziga amalga oshirilishi mumkin. Hozirgi kunda musiqqa o'qituvchisini kasbi ilmiy teshirish mavzusiga aylanib borayapti. Pedagogik tadqiqotlar olib borilib, o'qituvchi faoliyatiga qo'yilgan talablarni yorituvchi maqolalar chop etilayapti. Mashhur pedagogik- musiqachilar va ularni pedagogik faoliyatlarini o'rganish natijalariga bag'ishlangan maqolalar alohida qiziqish uyg'otadi.

Psixolgiya va pedagogikaning zamonaviy tadqiqotlariga tayangan holda musiqqa o'qituvchisini asosiy faoliyat doirasini aytib o'tishimiz mumkin.

taqiqotchilik (musiqqa asarlarini va san'atini boshqa turdagi asarlari; hamkasblar tajribasini, o'qituvchilar va o'zining ishini tahlil qilish; o'z ishida qulash maqsadida ilmiy va uslubiy adabiyotni o'rganish);

Konstruktivlik (darslar, darsdan tashqari musiqqa mashg'ulotlar) tuzilishi;

Loyihalash (o'qituvchilarini ma'naviy- estetik tarbiyasiga qaratilgan o'quv- tarbiyaviy vazifalarni taqsimlash va rivojlanitirish, o'qituvchilarni bilimlarini egallashlari, ularda bilim va ko'nikmalarni shakllanishi, ularni musiqiy va ijodiy rivojlanishi);

Kommunikativlik (o'quvchilar bilan ishonch va hurmat asosida o'zaro munosabatlar o'rnatish; o'quvchilar orasida obru- e'tiborga ega bo'lish);

Tashkilotchilik (o'quv- tarbiyaviy vazifalarni amalda echish);

Soʻzsiz, bularni hammasi bir biri bilan bogʻliq bulib, oʻquvchilarni musiqiy tarbiyasi vazifalarini echishga yunaltirilgan.

Maʼlum bir bilimlarni ishtirok etmasligi pedagogik faoliyatga salbiy taʼsir koʻrsatishi mumkin. Bu esa oʻz navbatida kutilayotgan natijalarni bermasligi mumkin. Bu bilimlar toʻgʻrisida batafsilroq toʻxtalib oʻtamiz.

Musiqqa oʻqituvchisi maʼlum darajada tadqiqot ishlari koʻnikmalariga ega boʻlishi zarur. U musiqiy asarlarni tanlaydi, ularni tahlil qiladi, ularni hissiy taʼsirini aniqlaydi, oʻquvchilarni musiqani ularni yoshi va individual qobiliyatlarga qarab tinglay olishlarini oʻrganadi. Oʻquv jarayonini takomillashtirish maqsadida u oʻquvchilarni ijodiy faoliyatlarini, musiqiy qobiliyatlarini oʻrganadi. Oʻquvchining maʼnaviy dunyosi hamisha oʻqituvchini diqqat markazida turadi. Oʻqituvchini tadqiqotchilik faoliyati juda keng, u birinchi sinfdan ettinchi sinfgacha boʻlgan barcha oʻquvchilarni oʻz ichiga oladi. Doimiy kuzatishlar natijasida oʻqituvchi pedagog sezgirlikka ega boʻlib, u sharoitni baholashga, oʻquvchini ichki holatini aniqlashga va pedagog taʼsir qilishni toʻgʻri uslubini topishga yordam beradi.

Darslarda bolalarni musiqiy eshitish qobilyatini rivojlantiruvchi koʻrgazmali qurollarni qoʻllash xam aloxida ahamiyat kasb etadi. Nota jadvallarini qullash jarayonida notaga qarab kuylash koʻnikmalariga ega boʻlish sodir boʻladi. Bu kichik ashula va kuylarni tez oʻrganishga yordam beradi. 1 - sinfda koʻrgazmali qurollar musiqiy – didaktik oʻyinlarda va maxsus topshiriqlarda qullaniladi.

Xulosa qilib aytish kerakki, darsga tayyorgarlik koʻrish va uni oʻtkazish oʻqituvchidan xamisha ijodiy yondoshishni bilimlarini, professional tajribani faol namoyon etishni talab etadi. Musiqqa darsi oʻqituvchi ijodi natijasi sifatida oʻquvchilarning ichki dunyosiga gʻoyaviy – xissiy kuch sifatida taʼsir etib ularda musiqaga qiziqishni, u bilan muomila qilishiga ehtiyoj tugʻdiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. I.A.Karimov. Yuksak maʼnaviyat-yengilmas kuch. –T.: “Maʼnaviyat” nashriyoti. 2008-yil.

J.Gʻ.Yoʻldoshev, S.A.Usmonov. Pedagogik texnologiya asoslari. –T.: “Oʻqituvchi” nashriyoti. 2004-yil.

2. Oʻ.Q.Tolipov, M.Usmonboyeva. Pedagogika texnologiyalarning tadbiqiy asoslari. – T.: “Fan” nashriyoti. 2006-yil.

3. V.N.Maksimova. Mejpredmetnyye svyazi v prosesse obucheniya. –M.: “Prosvisheniye”. 1988-god.

PEDAGOGIKANING DOLZARB MUAMMO VA YECHIMLARI

Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari

Муҳаррир: Т.Эргашев
Мусахҳиҳ: Ж.Муртозаев
Саҳифаловчи: С.Нормуҳаммедов

Гувоҳнома № 14-0003, 30.04.2020
Офсет қоғози. Босишга рухсат этилди 12.05.2021.
Формат А4. Гарнитура «Times New Roman».
Шартли босма табоқ 31,5
Адади 100 нусха. Буюртма № 09

ЖДПИ таҳририй-нашриёт бўлимида чоп этилди.
130100, Ш.Рашидов шох кўчаси, 4-уй
Тел./факс: (+99872) 226-02-93
(+99899) 525-67-99